

# Uzbekistan Airways airBaltic bilan kod-shering kelishuvi haqida e'lon qiladi

**2021 6 Dekabr**

Uzbekistan Airways va airBaltic qo'shma sheriklik qatnovlari to'g'risidagi yangi bitim asosida hamkorlikni yo'lga qo'yib, yo'lovchilar uchun O'zbekiston va Latviya poytaxtlari o'rtasida qulay sayohat imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Yangi shartnomaga muvofiq, 2021-yil 22-noyabrdan boshlab airBaltic Uzbekistan Airways'ning Toshkent va Riga o'rtasidagi reyslarida o'z marketing kodlarini o'rindiqlar kvotasini cheklovsiz joylashtiradi. Shunday qilib, airBaltic mijozlari uchun O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi shaharlar bilan aloqa yaxshilanadi, Uzbekistan Airways yo'lovchilari esa Yevropa airBaltic tarmog'ining qulay imkoniyatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladilar.

“Biz airBaltic bilan hamkorligimizni kengaytirish va Yevropada yo'nalish tarmog'ini yanada mustahkamlashdan mamnunmiz. O'zbekiston dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sayyohlik yo'nalishlaridan biri bo'lib, airBaltic bilan hamkorlik yo'lovchilarga Yevropa shaharlaridan O'zbekistonga – Markaziy Osiyo durdonasi – Toshkent xab aeroporti orqali yanada qulay sayohat qilish imkonini beradi deb ishonamiz” – deya ta'kidladi Uzbekistan Airways Boshqaruv raisi.

Volfgang Rays (Wolfgang Reuss), airBaltic yo'nalish tarmog'ini boshqarish bo'yicha yetakchi vitse-prezidenti: “Biz O'zbekistondan Riga va boshqa davlatlarga ham qulay va arzon sayohat qilish imkoniyatini taklif etishga intilmoqdamiz. Ushbu qadam bilan biz Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bilan vaqt sinovidan o'tgan hamkorligimizni yanada yaxshilaymiz va O'zbekiston bilan Latviya o'rtasidagi havo qatnovini mustahkamlaymiz”.

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)